

SUN'IY INTELEKTNING SOHALARARO MUNOSABATI VA TIL

Berdiyeva Marjona

*G'uzor sanoat va texnologiyalar
texnikumi maxsus fan o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada sun'iy intellektning fanlararo munosabatlari, uning inson hayotidagi o'rni hamda til va nutq bilan bog'liq jihatlari yoritilgan. Unda sun'iy intellektning tarixiy rivojlanish bosqichlari, ayniqsa 1956-yildan boshlab bugungi generativ sun'iy intellekt davrigacha bo'lgan jarayonlar tahlil qilingan. Shuningdek, sun'iy intellektning ta'lim, tibbiyot, transport, xavfsizlik, biznes, marketing, ijodiy soha hamda ilmiy tadqiqotlardagi imkoniyatlari va afzalliklari keng yoritib berilgan. Maqolada sun'iy intellektning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, unga haddan tashqari tayanish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar va axloqiy muammolar ham tanqidiy nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan. Sun'iy intellektni to'g'ri boshqarish, etik me'yorlarga rioya qilish va uni inson manfaatlari yo'lida qo'llashning dolzarbligi ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt, generativ sun'iy intellekt, mashina o'rganish, chuqur o'rganish, transformator arxitekturasi, til va nutqni qayta ishlash, avtomatlashtirish, ta'lim va tibbiyot, raqamli iqtisodiyot, axloqiy masalalar.*

Sun'iy intellektning fanga aralashuvi inson hayotiga tub burilishni yuzaga keltirdi. Sun'iy intellektning barcha bajaradigan vazifalari va yechilishi mumkin bo'lgan muammolarini tez va oson ko'p mablag' sarflamasdan hal eta boshladi. Albatta maqsad va vazifa muammolarni, sun'iy intellekt programmalarining manbalariga tayangan holda bajaradi. Sun'iy intellekt 1956-yilda akademik intizom sifatida tashkil etilgan va bu soha o'z tarixi davomida bir necha optimizm davrlarini bosib o'tdi va Al tarixi qishlari deb nomlanuvchi umidsizlik va mablag'ni yo'qotish davrlari. 2012-yildan keyin neyron tarmoqlarni tezlashtirish uchun grafik ishlov berish bloklari qo'llanila boshlagan va chuqur o'rganish avvalgi sun'iy intellekt usullaridan ustun bo'lganidan keyin moliyalashtirish va qiziqish sezilarli darajada oshdi. Transformator arxitekturasi bilan 2017-yildan keyin bu o'sish yanada tezlashadi. 2020 –yillarda ilg'or generative sun'iy intellektda davom etayotgan jadal rivojlanish davri sun'iy intellekt boom deb nomlana boshladi. Generativ Alning tarkibini yaratish va o'zgartirish qobiliyati bir nechta kutilmagan oqibatlar va zararlarga olib keldi, bu esa alning uzoq muddatli tasiri va potentsial ekzistensial xavflar haqida axloqiy xavotirlarni keltirib chiqaradi va

texnologiya xavfsizligi va avfzalliklarini ta'minlash uchun tartibga solish siyosati haqida munozaralarga sabab bo'ldi. Umumiy ma'noda su'niy intellekt deganda qidiruv tizimiga ega bo'lgan onlayn va oflayn tipdagi rivojlanish tushuniladi. Sun'iy intellektning quyidagi imkoniyatlari mavjud: ma'lumotlarni tez va aniq tahlil qilish, o'rganish va moslashuvchanlik, avtomatlashtirish, tibbiyotda qo'llanilishi, ta'lim sohasida qo'llanilishi, transport va xavfsizlikda qo'llanilishi, ijodiy sohada qo'llanilishi, til va nutqni qayta ishlash, biznes va marketingda qo'llanilishi, fan va tadqiqotlardagi yordami beqiyosdir.

Ma'lumotlarni tez va aniq tahlil qilish - sun'iy intellekt katta hajmdagi ma'lumotlarni insondan ming barobar tezroq tahlil qilish mumkin. Bu imkoniyat iqtisodiyot, tibbiyot, fan, ta'lim va boshqa ko'plab sohalarda muhim ahamiyatga ega. O'rganish va moslashuvchanlik - Sun'iy intellekt tizimlari tajriba orqali o'rganadi. Mashina o'rganish va chuqur o'rganish texnologiyalari orqali dasturlar va faoliyatini mustaqil ravishda yaxshilab boradi. Avtomatlashtirish - Sun'iy intellekt ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, logistika va hatto kundalik hayotdagi jarayonlarni avtomatlashtirish imkonini beradi. Bu mehnat unumdorligini oshiradi va inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni kamaytiradi. Tibbiyotda qo'llanilishi - Sun'iy intellekt yordamida kasallarni erta aniqlash, tibbiy tasvirlarni tahlil qilish, shifokorlarga tashxis qo'yishda yordam berish mumkin. Shuningdek bemorlar holatini kuzatib boruvchi aqilli tizimlar yaratilmoqda. Ta'lim sohasida qo'llanilishi - Sun'iy intellekt o'quv jarayonini individuallashtirish, har bir o'quvchining bilim darajasiga mos mashg'ulotlar tashkil etish imkonini beradi. Shuningdek, avtomatik test tizimlari va virtual o'qituvchilar sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan. Transport va xavfsizlikda qo'llanilishi - avtonom transport vositalari, haydovchisiz avtomabillar, yo'l harakati xavfsizligini nazorat qiluvchi aqilli tizimlar. Yuzni aniqlash va kuzatuv texnologiyalari sun'iy intellekt orqali amalga oshiriladi. Ijodiy sohada qo'llanilishi - Sun'iy intellekt musiqa, rasm, dizayn, matn yozish, film montaji kabi ijodiy jarayonlarda ham foydalanilmoqda. Chat GPT, Gamma up, Deepl, Canva al kabi dasturlar bunga misol bo'ladi. Til va nutqni qayta ishlash - Sun'iy intellekt yordamida tarjima tizimlari, ovozli yordamchilar va matnni nutqqa aylantiruvchi dasturlar yaratilgan. Bu inson kompyuter o'zaro aloqasini ancha yengillashtiradi. Biznes va marketingda qo'llanilishi - Sun'iy intellekt xaridorlarning xatti - harakatlarini tahlil qilib kompaniyalarga samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beradi. Shuningdek mijozlar bilan avtomatik muloqot qiluvchi chat botlar ham sun'iy intellekt asosida ishlaydi. Fan va tadqiqotlardagi yordami - Sun'iy intellekt ilmiy tajribalar natijalarni tez tahlil

qilish ,yangi nazariyalar va modellar yaratish ,shuningdek kashfiyotlarni jadallashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Sun'iy intellekt inson taraqqiyotida yangi bosqichni bosqichni boshlab berdi.U mehnatni yengillashtiradi,vaqtni tejaydi, aniq va samarali natijalar beradi.Shu bilan birga Sun'iy intellektni to'g'ri boshqarish , etik me'yorlarga rioya qilish va inson manfaatlari yo'lida ishlatish eng muhim masalardan biri. Sun'iy intellektning qator yutuqlarini sanab o'tdik.Bundan tashqari Sun'iy intellekt haqida tanqidiy fikrlarni ham berib o'tishadi.Masalan olimlarning fikricha sun'iy intellektlarning kamchiligi ,u insoniyatga ma'lumotlar bazasi haqida qancha tez va oson yordam bergan bo'lsa , foydalanuvchining xotirasidan shunchalik tez chiqib ketadi.Bu esa foydalanuvchining sun'iy intellektga suyanib qolishiga olib kelishi mumkin. Fan texnikaning rivoji har doim sun'iy intellektga bog'liq. Bundan keyin ham sun'iy intellekt mukamallashib boradi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biriga aylanib, fan, ta'lim, tibbiyot, iqtisodiyot, til va ijodiy sohalarda keng qo'llanilmoqda. Uning fanlararo munosabatlari ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirib, murakkab muammolarni qisqa vaqt ichida hal etish imkonini bermoqda. Ayniqsa, til va nutqni qayta ishlashga asoslangan sun'iy intellekt texnologiyalari inson-kompyuter o'zaro aloqasini yengillashtirib, ta'lim jarayonini individuallashtirish va axborotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, sun'iy intellektidan foydalanishda axloqiy me'yorlarga rioya qilish, inson tafakkuri va mustaqil fikrlashini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Sun'iy intellekt inson faoliyatini to'liq almashtiruvchi emas, balki uni qo'llab-quvvatlovchi va samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida qaralishi lozim. Kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalarini ongli, mas'uliyatli va inson manfaatlari yo'lida qo'llash jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Abduvaliyev B. Sun'iy intellekt asoslari-Toshkent:2022
2. G'afurov N ,Xolmatov A. Axborot texnologiyalari va Sun'iy intellekt asoslari. Toshkent:2021
- 3.To'laganov M. Raqamli iqtisodiyotda sun'iy intellektning o'rni va ahamiyati Toshkent:2023
- 4.UNESCO Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. Paris: 2021
- 5.Google scholar zamonaviy maqolalar (Chat GPT GPT-5).